

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA TIL VA NUTQ TUSHUNCHALARI

Zilola Alisherovna Mirkasimova

MTTDMQTMOI tayanch doktoranti,

zilolaxakimova0083@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7416906>

Annotatsiya: Insoniyat paydo bo'libdiki, o'z hatti-harakatlarini imo-
ishoralar, belgilar orqali tushuntirgan. Rivojlanish bosqichlari natijasida,
insoniyat gapirish, tushunish, yozish, o'qish kabi layoqatlarga ega bo'lgan. Aynan
nutq, inson miyasi rivoji uchun o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. So'z
boyligining ko'pligi esa nutqning teranligini ta'minlovchi vositadir. Ushbu
maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z ona tili hamda xorijiy tillarni
bilishi, uning aqliy rivoji uchun qay darajada ta'sir etishi mumkinligi hamda
maktabgacha yosh davri bir necha tillar uchun eng qulay davr ekani haqida
bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Til va nutq tushunchasi, Maktabgacha yosh davri, ona tili,
xorijiy til

Psixologiyada til insonlarning o'zaro muloqotida qo'llaniladigan belgilari
tovushlar, so'zlar, iboralarni muayyan tilda mavjud qoidalar asosida qo'llashning
eng muhim tabiiy tizimi sifatida, nutq esa insonlarning til vositasida fikr
ifodalash, shuningdek, axborotni qabul qilish va uzatishda foydalanish jarayoni
sifatida tushuniladi.

Ko'rinadiki, til va nutq turli tushunchalardir, biroq bir-biri bilan uzviy
bog'langan. Zero, til-bu "imkoniyatli muloqot vositasi" bo'lsa, nutq esa
"harakatdagi aynan o'sha vositalar" hisoblanadi.

Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko'rmasin, unda
so'zlash qobiliyati bo'lmaydi. Chunki irsiyat qonuniga binoan bolaning biologik,
antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o'tadi, lekin til nasldan naslga,
avloddan avlodga o'tmaydi, ya'ni uning irsiyatga hech qanday aloqasi yo'q.
O'zbek oilasida tug'ilgan bola faqat o'zbek tilida gapiradi deb o'ylash noto'g'ri. U
qaysi tilda gapira boshlashi, qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga
bog'liq: agar chaqaloq rus tilida gaplashuvchi jamoa ichida tarbiyalansa ruscha,
tojiklar ichida tarbiyalansa tojikcha gapiradi.

XX asr boshlarida Hindistonda ro'y bergan voqea bu mavzuga yaxshi dalil bo'la
oladi. U erda bo'rilar to'dasi orasida ikki qizchaga duch kelingan. Qizchalardan
biri 2yoshda, ikkinchisi 7-8 yashar bo'lgan. Ular bo'rilarga xos xatti-harakatlar
qilishgan, lekin gapirishni bilishmagan. Hindistonlik psixolog olim bu ikki
go'dakni dastlab uyda, keyinchalik kattasi (kichigi ko'p vaqt o'tmay, kasallanib
vafot etgan) bolalar uyida tarbiyalangan. Bu qiz yana 10 yil atrofida umr ko'rgan

bo'lsada, ammo til va yurish-turishda aytarlik muvaffaqiyatga erisha olmagan. Bu yillar maboynida u 45ga yaqin so'zni o'rganadi, lekin ulardan gap tuza olmaydi. Bu voqeani chuqur tahlil qilgan psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslar shunday xulosaga kelishgan:

1. Til tabiiy hodisa emas.
2. Tilning paydo bo'lishi uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart.
3. Til va tafakkur bir vaqtda paydo bo'ladi, birga rivojlanadi, biri ikkinchisiz yashay olmaydi.
4. Til-nutq muhiti bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tamonlama til ta'siri o'tkazilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu til uning ona tili bo'lib qoladi.

Bola ona tilini o'zlashtirar ekan, o'z ongida tegishli til qurilmasini shakllantiradi. O'zbek oilalaridagi bolalarda, tabiiyki, o'zbek tili qurilmasi shakllanadi. Bola ona tilini egallash orqali hali to'liq bo'lmagan til qurilmasidan foydalanishga o'rganadi, chunki u hali so'zlarning ma'nosini, ularni qanday qilib to'g'ri talaffuz etilishini bilmaydi: Aslini olganda, o'z ona tilini to'liq bilish – bu tildan foydalanish jarayonida til qurilmasini to'liq o'zlashtirish, deganidir. Ko'p martalab qaytariladigan so'zlar yoki grammatik tuzilmalarni bola eslab qolar ekan avval qurilmasidagi qabul qiluvchi qismning bir elementi sifatida o'zlashtirib oladi, keyin esa yaratuvchi qismga o'tadi ya'ni o'rgangan so'zlarini matnda qo'llashni va o'zi gap tuzishni o'rganib oladi.

Bundan ko'rinadiki, maktabgacha yoshdan bolalarning tillarni o'rganishi ularning aqliy rivoji uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi.-T., 2004.
2. Golovin B.N. Vvedenie i yazыkoznaniye. 3-nashr. – M.: 1997
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish, Toshkent; “YAngi asr avlodi”, -2009